

HARBIY VATANPARVARLIK-YUKSAK BURCH VA SADOQAT

Ataxanov Shuxrat Turaxanovich

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti  
harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasining dolzarbligi, davlat siyosati markazida turganligi, bu borada olib borilayotgan islohotlarning muhim jihatlari hamda globallashuv jarayonida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yordam beruvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha fikrlar bayon etilgan.*

**Tayanch iboralar:** *vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, davlat siyosati, yoshlar, axloq, an'anaviy va zamonaviy usublar.*

ВОЕННЫЙ ПАТРИОТИЗМ-ВЫСОКАЯ ЧЕСТЬ И ЛОЯЛЬНОСТЬ

Атаханов Шухрат Тураханович

*Преподаватель учебного центра военной подготовки  
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

**Аннотация:** *В данной статье описывается актуальность вопроса воспитания молодежи в духе патриотизма, то, что он находится в центре государственной политики, важные аспекты реформ в этом направлении, а также организация просветительской деятельности, способствующей воспитанию молодежи. в духе военного патриотизма в процессе глобализации.*

**Ключевые слова:** *воспитание в духе патриотизма, государственной политики, молодежи, этики, традиционных и современных методов.*

MILITARY PATRIOTISM - HIGH HONOR AND LOYALTY

Ataxanov Shuxrat Turaxanovich

*Teacher of the Military Training Center  
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan*

**Annontation:** *This article describes the relevance of the issue of educating youth in the spirit of patriotism, the fact that it is at the center of state policy, important aspects of reforms in this direction, as well as the organization of educational activities that contribute to the education of youth. in the spirit of military patriotism in the process of globalization.*

**Key words:** *education in the spirit of patriotism, public policy, youth, ethics, traditional and modern methods.*

*“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.*

**A.Avloniy.**

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash–davlat siyosati markazida Vatan himoyasida toblangan mard o'g'lonlarimiz o'zining mardlik va jasurlik fazilatlarini, yuksak vatanparvarlik tuyg'usi bilan obro'-e'tibor qozongan harbiy xizmatchilarimiz yoshlarga har tomonlama ibrat va o'rnak namunasi bo'lishi mumkin. Vatan ravnaqi g'oyasi Vatanga daxldorlik hissi mazmunini, har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir. U milliy istiqloqlarning oliy maqsadi O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi. Vatanni ardoqlash, e'zozlash va unga xizmat qilish Konstitutsiyamizning 64-moddasida ham mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, “O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlar” Har qanday davlat o'z istiqbolini sog'lom va barkamol avlod timsolida ko'radi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yoshlarni zamon talablari darajasida ta'lim–tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Shu bilan birga, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya”si qabul qilindi. Konsepsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudratini va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish masalasi ko'rib chiqilgan. Ma'lumki, mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ziyodini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bu esa 2016 yilning 14 sentabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonunning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya tizimi, harbiy va murabbiylar hayotiga o'z-o'zini anglashda, xalqning, millatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida bosib o'tgan murakkab yo'liga, ajdodlarimizning ma'naviy-madaniy, ilmiy, diniy, falsafiy, ma'rifiy merosiga qarashlari va g'oyalari har bir kishining bevosita bog'liqligini chuqur va atroflicha his qilishlari ko'maklashishi lozim. Harbiylarda milliy o'zlikni anglashni, millat, uning tarixiga mansubligini his qilishni shakllantirish kerak.

Gerodotning “tarix” kitobida yozilganidek uch ming yil avvalgi ajdodlarimizda qadrlanadigan xislatlarning eng asosiysi-jasurlik ekan. Undan keyingi muhim xislat adolatlilik

va mohirlik bo'lgan. Har bir ishni bajarganda, jumladan; ilm olish haqida yuqori mahorat va milliy madaniyatga qarab bajarish insonning fazilatlari hisoblanadi.

Ma'naviy merosimiz hisoblangan epik rivoyatlarda, jumladan, "Avesto", Firdavsiyning "Shohnoma", Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", "Guro'g'li" va "Alpomish" dostonlari va boshqa asarlarda ajdodlarimizning vatanini, xalqini, millatini sevish, or-nomus va do'stlariga sadoqat va madaniyat kabi sifatlar ularning asosiy ijtimoiy-ma'naviy xislatlari hisoblangan.

Harbiy qismlarda va oliy harbiy o'quv yurtlarida harbiy xizmatchilarni hush xulqli, yuksak ma'naviyatli etib voyaga yetkazish uchun murabbiy harbiylarning hissiyotiga ta'sir o'tkazadigan vositalaridan foydalanishi kerak. Bunda badiiy adabiyot juda qo'l keladi. Masalan: Hadislarning mazmunini ifodalangan she'rlar-Alisher navoiyning "Qirq hadis"i, Abdullo Oripovning "Haj daftari" va boshqa kitoblardan foydalanish axloqiy saboq mashg'ulotlarini jonlashtiradi, tarbiyaviy ta'sirini oshiradi.

Harbiylarni ma'rifatparvar, yuksak manavyat soxibi etib tarbiyalashda ommaviy siyosiy tayyorgarlik va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi mashg'ulotlarining olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazganlar. Jumladan: al-Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, al-Xorazmiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va Ogahiy kabi komil insonlar yetishib chiqib, milliy tarbiyamizni yanada olamga mashhur qildilar.

Ular tufayli milliy armiyamiz va xalqimiz faxrlanadi, xalol mehnat qiladi, doimo hurriyat va erk sari intiladi.

Inson komillikka intilar ekan, zinhor bu intilishning oxiriga yeta olmaydi. Shu bois, men komilman, kamolotga erishdim degan kishi xato qiladi. Inson o'z faoliyati mobaynida, nuqson va kamchiliklarga ham yo'l qo'yadi. Ammo shu nuqson va kamchiliklarni tushunib, tuzatib, ularni takrorlashmaslikka harakat qiladigan kishi barkamol va madaniyatli inson hisoblanadi.

Bu haqda, Alisher Navoiy shunday qayd qilingan:

Noqis o'ldirkim, o'zin komil degay,

Komil o'lkim, nuqson isbot aylagay.

Alisher Navoiyning fikricha, ahli ma'ni, ya'ni ma'nili kishilar ma'naviyatli yetuk shaxslardir: "Xayrat-ul-abror" dostonida yetuk shaxsning ma'naviyatidagi yaxshilik, sahoat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, adab, kamtarlik, sadoqat, qanoat, rostgo'ylik, bag'ri kenglik singari fazilatlari ta'riflanib, ruhiy kamolot yo'llari tahlil etilgan.

Navoiyning fikricha, harbiylarni kamolotga yetkazish deganda, uni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar qilib yetishtirish anglashiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlaridagi: "Harbiy xizmat jarayonida har bir askar bilan alohida ish olib borishimiz, ularni avvalo, Jaloliddin Manguberdi va Amir Temur kabi jasur ajdodlarimizning munosib vorislari, ona - Vatanimizning haqiqiy himoyachilari etib tarbiyalashimiz darkor" .

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunini.
3. Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-son qarori.
4. Munavvarova M. Milliy g‘oyaning ma‘naviy ildizlari. -T.: “Ma‘naviyat”, 2011.